SURUNKALI YIRINGLI O'RTA OTITDA NOG'ORA PARDA PERFORATSIYASI VA ESHITISH FUNKSIYASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Ismatov A.A
Buxoro davlat tibbiyot instituti,
Otorinolaringologiya kafedrasi

Annotatsiya
Surunkali yiringli o'rta otit (SYO'O) o'rta quloqning uzoq davom etuvchi yallig'lanish kasalligi bo'lib, nog'ora parda perforatsiyasi va eshitish funksiyasining pasayishi bilan kechadi. Perforatsiyaning kattaligi va joylashuvi o'rta quloqning tovush o'tkazuvchi mexanizmiga ta'sir ko'rsatib, turli darajadagi eshitish buzilishlariga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu tezisda SYO'Oda nog'ora parda perforatsiyasi va eshitish funksiyasi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi. Audiometriya natijalari perforatsiya va o'rta quloqdagi yallig'lanish jarayonlari mavjud bemorlarda asosan o'tkazuvchi turdagi eshitish pasayishi kuzatilishini ko'rsatadi. Perforatsiya kattalashishi, eshitish suyakchalari tizimining shikastlanishi va kasallikning uzoq davom etishi eshitish pasayishining kuchayishiga olib kelishi mumkin.[1]

Kirish
Surunkali yiringli o'rta otit otorinolaringologiyada keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lib, uzoq davom etuvchi yallig'lanish jarayoni, quloqdan yiringli ajralma kelishi va nog'ora parda perforatsiyasi bilan tavsiflanadi. Kasallikning muhim asoratlaridan biri eshitish funksiyasining pasayishidir.[2 Nog'ora parda tovush tebranishlarini o'rta quloqning eshitish suyakchalari tizimiga uzatishda muhim ahamiyatga ega. Uning perforatsiyasi natijasida tovush o'tkazilishi buzilib, o'tkazuvchi turdagi eshitish pasayishi yuzaga kelishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi
Surunkali yiringli o'rta otitda nog'ora parda perforatsiyasining xususiyatlari va eshitish funksiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni baholash.

Asosiy qism
SYO'Oda nog'ora parda perforatsiyasi markaziy, subtotal yoki chekka ko'rinishda uchrashi mumkin. Perforatsiyaning kattaligi va joylashuvi eshitish funksiyasiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Kichik markaziy perforatsiyalarda eshitish pasayishi ko'pincha yengil darajada bo'lsa, katta va subtotal perforatsiyalarda tovush o'tkazilishi sezilarli darajada buzilishi mumkin. Chekka perforatsiyalarda esa destruktiv jarayonlar va xolesteatoma rivojlanishi xavfi mavjudligi sababli eshitish funksiyasi yanada ko'proq zararlanishi mumkin.[3]
SYO'O bilan og'rigan bemorlarda eshitish holatini obyektiv baholash uchun tonal chegaraviy audiometriya muhim diagnostik usul hisoblanadi. Audiometriya yordamida havo va suyak orqali eshitish chegaralari aniqlanib, eshitish pasayishining turi va darajasi baholanadi.

Mavjud adabiyotlar ma'lumotlariga ko'ra, SYO'Oda eshitish pasayishi ko'pincha o'tkazuvchi xarakterga ega. Kasallik uzoq davom etganda yoki eshitish suyakchalari zararlanganda eshitish pasayishi kuchayishi va ayrim hollarda aralash turga o'tishi mumkin.

Xulosa

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Surunkali yiringli o'rta otitda nog'ora parda perforatsiyasi eshitish funksiyasi buzilishining muhim omillaridan biridir. Perforatsiyaning kattaligi, joylashuvi, kasallik davomiyligi va eshitish suyakchalari tizimining holati eshitish pasayishining darajasiga ta'sir ko'rsatadi.[4] Audiometriyadan foydalanish eshitish funksiyasidagi o'zgarishlarni obyektiv baholash va kasallikning funksional og'irligini aniqlash imkonini beradi. Shu sababli SYO'O diagnostikasida otoskopik tekshiruvni audiometriya bilan birgalikdaqo'llash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schilder A.G.M., Chonmaitree T., Cripps A.W. et al. Otitis media. Nature Reviews Disease Primers. 2016;2:16063.
2. Verhoeff M., van der Veen E.L., Rovers M.M. et al. Chronic suppurative otitis media: a review. International Journal of Pediatric Otorhinolaryngology. 2006;70(1):1–12.
3. Monasta L., Ronfani L., Marchetti F. et al. Burden of disease caused by otitis media: systematic review and global estimates. PLoS One. 2012;7(4):e36226.
4. Katz J., Chasin M. Handbook of Clinical Audiology. Wolters Kluwer.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.